



UDK: 372.3/4

Ilxomjon YUNUSOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi
E-mail: ilxomyunus@mail.ru

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, p.f.d B.Abdullaeva taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF MEDIASAVODKHANATE COMPETENCIES OF FUTURE DOKTORS

Аннотация

This article discusses the content and essence of the concepts of media and media culture, as well as the fact that the development of students' media culture is a pressing pedagogical problem.

Key words: modern information technologies, students, media, culture, media culture, media education, media literacy, media literacy, media skills, media competence.

РАЗВИТИЕ МЕДИАГРАМОТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ

Аннотация

В данной статье рассматривается содержание понятий медиа и медиакультуры и в основе лежит также развитие медиакультуры учащихся говорят о том, что это актуальная педагогическая проблема.

Ключевые слова: современные информационные технологии, студенты, СМИ, культура, медиакультура, медиаграмотность, медиаграмотность, медиамастерство, медиакомпетентность.

BO'LAJAK SHIFOKORLARNINIG MEDIASAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Mazkur maqolada media va mediamadaniyat tushunchalarining mazmuni va mohiyati yotilgan, shuningdek, talabalarining mediamadaniyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy axborot texnologiyalari, talabalar, media, madaniyat, mediamadaniyat, mediata'lim, mediasavodxonlik, mediabilimdonlik, mediamahorat, mediakompetentlik.

Kirish Jahon tibbiyot ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini raqamlashtirish, axborot muhitida mediata'lim maxsulotlarini joriy etishning kreativ texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha bo'lgan davr yangi ta'lim konsepsiyasida: "...zamonaviy dunyoda mediana ijtimoiy madaniy va siyosiy nuqtai nazardan tushunish, mediamatnlarni idrok etish, yaratish, tahlil etish, baholash qobiliyati rivojlangan mediasavodxon kadrlarni tayyorlash..." dolzarb vazifa sifatida e'tirof etilib, ta'lim jarayonlarida mediata'limning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash, innovatsion pedagogik va ahborotkommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Mustaqillik yillarida ta'lim sohasida olib borilgan keng ko'lamli islohotlar tibbiyot oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quvlaboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, o'quv dasturlari, o'quvmetodik adabiyotlarni xalqaro talablarga mos holda yangilash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Olib borilayotgan amaliy ishlardagi yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida: "...xalqaro tajribalardan kelib chiqib, o'quv jarayonlarini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajriba asosida zamonaviy ta'lim va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish xisobiga talabalarining mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish..." vazifasi pedagogik zarurat sifatida belgilandi. Elektron darsliklar, virtual ta'lim texnologiyalari, multimediali elektron majmualardan o'quv jarayonida keng foydalanish orqali talabalarining mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirilishi hamda faoliyat sohalari bo'yicha talabalarga innovatsion ta'lim berish, kasbiy

ko'nikma va malkalarini doimiy takomillashtirib borish mediakontentlardan ta'lim jarayonida foydalangan holda mediakompetensiyali zamonaviy mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida mediamatnli materiallar, kompyuter texnologiyalari asosida o'qitishga mo'ljallangan elektron darsliklar, mediamahsulotlar yaratish jarayonlarini rivojlantirish, talabalarda mediamadaniyat va mediasavod-xonlik ko'nikmalarini takomillashtirish va mavjud o'qitish texnologiyalarining meyoriy asosi yaratilmoqda. Bo'lajak shifokorlar uchun multimedia maxsulotlarini yaratish texnologiyalarini, shu jumladan, tibbiy texnologik apparatlar (MRT, MSKT, RET, kompyuter tomografiyasi) da tashxis qo'yish va davolash uchun foydalaniladigan tomografik rasmlardan mediakontent yaratishda foydalanishni rivojlantirish hamda fan, ta'lim va ishlab chiqarishni keng axborot muxiti sharoitida tashxis ma'lumotlarni taqqoslash, muammolarni tahlil qilish, umumlashtirish va muammoli vaziyatlarda mustaqil qarorlarni qabul qiladigan mediasavodxonlik kompetensiyasiga ega salohiyatli kadrlarni tayyorlashni taqazo etmoqda. Tibbiyot sohasidagi islohatlar tufayli aholini sifatli tibbiy xizmat bilan ta'minlashda ularning mediamadaniyatini rivojlantirish, kasalliklarni barvaqt aniqlash borasidagi manzilli ishlarni jadallashtirish bo'yicha kompleks choratadbirlar amalga oshirildi. Natijada tibbiyot sohasida bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyati kengayadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyoda kechayotgan globalashuv, shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamlashuv jarayonlari, siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy manfaatlar to'qnashuvi medianing axborot-psixologik ta'sirini oshirib, insonlar ongu shuuri uchun kurash jarayonini

kuchayib borishiga sabab bo'lib bormoqda. Yoshlarning mediaolamdagi shiddatli axborot oqimiga qiziqishlarining ortishi, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik muammosining dolzarblashuvi, axborotning tovar sifatidagi tijoriy funksiyalari kypayishi, axborot muhitining ifloslanishi, unda turli nomaqbul axborot shakllarining paydo bulishi, mediaga qaramlik yoshlarning media bilan munosabatini tartibga solish uchun talabalarining mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishni taqazo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079 sonli farmoniga asosan mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'z mutaxassisligi bo'yicha bilim olishlarida, zamonaviy kasb-xunar egallashlarida va kasbiy tayyorgarliklarini takomillashtirishda, bu jarayonning maqsadi, vazifalarini yaxshi tushunishlarida innovatsion ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va raqamli texnologiyalarni xar tomonlama chuqur o'zlashtirishlari zarur bo'ladi. Zamonaviy axborot jamiyatida media, mediata'lim, ta'lim jarayonlarida mediadan foydalanish, zamonaviy bo'lajak shifokorning ommaviy axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishda, ommaviy axborot vositalari yordamida ta'lim mohiyatini o'zlashtirish, kasbiy salohiyatini oshirish va turli ommaviy axborot vositalaridan foydalanish shartlarini tushunishga, ta'lim jarayonida (axborot texnologiyalari, Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ekran san'ati, kompyuter tomografiyalari, televizor, reklama, interaktiv doskalar)dan foydalanish, kompyuter animatsiyasi va boshqalar), tibbiy modellar va ulardan foydalanishga tayyorligini shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Shuning uchun xam bo'lajak shifokorlarning axborot va kompyuter texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish orqali ularning mediasavodxonlik kompetensiyalarini masalasi ilm oldida turgan dolzarb masalalardan biri xisoblanadi. Bunda zamonaviy ilmiy texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda, bo'lajak shifokorlarning media borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlar ichida muhim ahamiyatga ega xisoblanadi.

Respublikamizda ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, uzluksiz ta'lim, jumladan, oliy ta'lim tizimida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, olib borilgan islohotlar bugun o'z samarasini bermoqda. Mazkur jarayonlarni amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitidan samarali foydalanib, milliy kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni barkamol va yetuk etib voyaga yetkazish o'qituvchi-pedagoglarning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlar belgilanib, bu borada oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligiga erishish katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kundagi zamonaviy media savodxonlik, internet va ijtimoiy tarmoq, inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu texnologiya foydalanuvchilarini shartli tarzda ikki toifaga bo'lish mumkin. Birinchi toifa shaxslar, internet va media olamning ijobiy jihatidan unumli foydalanib, internet va

axborot texnologiyalar jamiyat taraqqiyotiga samarali hissa qo'shadi deb hisoblaydi. Ikkinchi toifa esa, axborot va ijtimoiy tarmoqlardan turli yolg'on va tahdid kabi axborot tarqatishda foydalanib, maishiy masalalar doirasida o'ralashib qolganlardir. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda bo'lajak shifokorlar uchun eng zarur bo'lgan asbob- pichoqni media orqali targ'ib qilinmoqda, deylik. Birinchi toifa shaxslar pichoqni shifokor uchun naqadar ahamiyatli qurol ekanligini, ushbu qurol yordamida shifokor bemorni jarrohlik amaliyoti yordamida uni hayotga qaytarishini va kundalik turmushimizni shu pichoqsiz tasavvur qilib bo'lmashligini tahlil qiladilar, fikr yuritadilar va ushbu qurol-pichoqning yana biz bilmagan ijobiy va foydali tomonlarini mediadan tanlab, ajratib olib, pichoq haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar. Ikkinchi toifa shaxslar esa pichoq-bu yovuz maqsadlarni amalga oshirishda eng oson qurol sifatida qo'llashni fikr qiladilar. Pichoq massasi kichkina bo'lganligi sababli dushmanga ko'rsatmasdan yon cho'ntakda ham olib yurishga qulayligini, u o'tkir tig'li sovuq qurollar turkumiga kirganligi sababli dushmanga xujum qilishda eng qulay qurol ekanligini tahlil qiladilar, fikr yuritadilar va yana ushbu quroldan o'z g'arazli maqsadlarini amalga oshirishda yana qanday xususiyatlardan foydalanish mumkinligini uylaydilar. Demak, media bilimlilar uchun bilim vositasi, kimlar uchun esa balo vositasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin ekan. Shuning uchun xam talabalarda axborotlarni saralash, tahlil qilish, ijobiy natijalarga yo'naltirish kompetensiyasi muxim xisoblanadi. Jumladan, XX asrda xali internet rivojlanmagan vaqtda axborot taqchilligi mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda, jamiyatda esa axborot oqimi ko'paygani tufayli, ilmiy, tahliliy va mantiqiy fikrlash talab etuvchi axborotdan qochish, yuzaga keldi. Global axborot zamonida qabul qilinayotgan axborotlarni tushunish, baxolash, tanqidiy tafakkurni shakllantirishni talab etadi.

Bugungi kunda media, ya'ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san'atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma'lumot inson ongiga o'zining ma'lum bir ta'sirini o'tkazib, uning dunyoqarashini o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning qo'llanilishi va bugungi kunda mediata'lim, mediasavodxonlik, mediatanqid va mediani o'rganishga bo'lgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni baholay olishdir.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda talabalarining darsga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya'ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so'ng darsda ko'rgazmali organayzerlar, ko'rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallardan foydalanib, klaster va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bizning tadqiqotimiz tayanch, fanga oid, amaliy, fan va hayotiy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Nima uchun talabalarga mediasavodli bo'lishi muhim? Bugungi kunda mediasavodxonlik XXI asr yoshlari uchun eng zarur bo'lgan ko'nikma bo'lib qolmoqda. Xuddi o'qish, yozish qobiliyati kabi bu juda muhim ko'nikma. Sababi, bugungi kunda odamlar media dunyosida yashaydilar, turli axborot manbalaridan foydalanadilar. Albatta, har kim bu ma'lumot qanchalik foydali yoki zararli bo'lishi mumkinligini o'zi o'ylashi kerak. Shu ma'noda media axborotlarni oziq-ovqatlar bilan taqqoslanadigan metafora kabi tushunish mumkin. Odatda aynigan ovqat istemol qilinmaydi. Juda yog'li yoki juda achchiq taomni iste'mol qilish organizm uchun zararli xisoblanadi. Albatta, bu masalada insonni o'zi nimani tanlashini hal qilishi kerak. Axborotlar ham xuddi shunday.

Turli ta'mli mahsulotlar tanlanishi mumkin, ammo aynigan ya'ni keraksiz ma'lumotlarga ega bo'lish, ularni o'qish, iste'mol qilish kerak emas. Fikrimizcha, bu metafora, axborot dunyosida hozir nima sodir bo'layotganini juda yaxshi ko'rsatib beradi. Fast fud (tez pishadigan taom) kabi hamma narsani iste'mol qiladigan odamlar bor. Sifatli mahsulotni tanlab, saralab o'qiydigan, tinglaydigan odamlar ham mavjud. Ammo, bu ma'noda qaralganda, inson uchun axborotdan keladigan xavf oziq-ovqatnikidan kam emas. Agar inson fast fudni iste'mol qilsa nima bo'ladi? Insonda ortiqcha vazn orttirish xolati vujudga keladi. Demak, talabalar xam sifati past ma'lumotlarni o'qisalar, unda dunyo haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'ladilar. Ehtimol, ba'zi firibgarlar talabalarda mediasavodxonlik shakllanmaganligi sababli ularni aldab ketishi mumkin. Shuning uchun xam talabalarda mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masala kasb etadi.

Tadqiqotimiz mavzusidan kelib chiqib, bo'lajak shifokorlarda mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasini yoritishdan avval media o'zi nima? Mediasavodxonlik nima? Mediasavodxonlik kompetensiyasi nima? Nima uchun bo'lajak shifokorlarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish muhim? Kabi muhim savollarga to'xtalib o'tamiz.

Media (inglizcha media, lotincha medium -vositachi) degan ma'noni anglatib, bu aloqa vositalari, axborotni uzatish usullari, shuningdek ular tomonidan shakllangan muhit (media makon) ni o'z ichiga olgan keng tushunchadir. Media atamasini birinchi marta fanga Kanadadagi Toronto Universiteti xodimlari tomonidan amaliyotga kiritilgan. Shuning uchun xam Toronto Universiteti xodimlari media atamasi asoschilari xisoblanadi. Toronto Universiteti - Kanadadagi yirik oliy o'quv yurtlaridan biri xisoblanadi. Oliygo'ha 1827-yil tashkil etilgan. Universitetda sanoat texnologiyasi, sanat va fan, o'rmon xo'jaligi, tibbiyot, stomotologiya, pedagogika, huquqshunoslik, farmokologiya yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Xozirgi

kunda Toronto Universitetida 50 mingdan ortiq talabalar ta'lim oladilar. Keyinchalik bu atama lotin tilidan hosil bo'lgan ko'plik shakli o'rta, "o'rta" yoki "vositachi" deb tarjima qilingan. Media atamasi xaqida Toronto universiteti xodimi Marshal Makluanni intervyusidan iqtibos keltirishimiz mumkin: "...bizni o'rab turgan atrofdagi dunyoni o'rganishga yondashuv yetarlicha adaptiv moslashuvchan bo'lishi kerak, shunda u doimiy harakatda bo'lgan atrofdagi dunyoning matritsasini qamrab olishi mumkin. Men o'zimni keng manodagi universal olim deb bilaman, kichik bir fanga yopishib olgan, uni o'zining intellektual sohasi deb e'lon qilgan va atrofda boshqa hech narsani ko'rmaydigan tor mutaxassis emas. Mening ishim, aslida, chuqur tahliliy natijani oddiy amaliyotga aylantirib berish, yani zamonaviy oddiy metallurgiyadan tortib murakkab psixiatriyagacha bo'lgan jarayonlarni strukturaviy taxlil qilib, ularni sodda qilib amaliyotga qo'llashdan iboratdir. Turli xil axborotlar oqimini samarali o'rganish nafaqat tarkib, balki vositalarning o'zi, shuningdek, ushbu vositalar faoliyat ko'rsatadigan media kontekst bilan ham bog'liq. Hodisaning harakat tamoyillari va asosiy kuch chiziqlarini kashf qilish uchun uni yon tomondan kuzatish kerak. Mening tadqiqotimda radikal yoki shov-shuvli narsa yo'q, lekin negadir hech kim buni mendan oldin qilishni o'ylamagan edi. G'arb sivilizatsiyasining so'nggi 3500 yillik davrida turli xil axborotlar oqimining ta'siri — nutq, yozish, matbaa, fotografiya, radioeshittirish yoki televideniye bo'lsin — jamiyat tadqiqotchilari tomonidan muntazam ravishda kam baholangan. Shu kabi ommaviy axborotlar oqimlari o'rtaidagi aloqa vositasi -bu xabar, ya'ni mediadir",- deb o'z fikrini bayon etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni aytib o'tish joizki, mediamadaniyatini rivojlantirish — ijtimoiy madaniy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mediamadaniyat pedagogning media sohasidagi faoliyatining turli bosqichlarida axborot va mediamatnlarning har xil turlariga nisbatan o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR

1. Worsnop, C.M. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy, 60p.
2. Бабаджанов С.С. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг медиакомпетентлигини ривожлантириш технологияси («Информатика ва ахборот технологиялари» ўқув фани мисолида): п.ф.б.ф.д (PhD) диссер.... Тошкент, 2018. — Б. 36-37.
3. Парламентская Ассамблея Совета Европы. Документ №8753 от 6 июня 2000.
4. Уматалиев З. Медиахавфсизлик ёшларимиз келажакнинг пойдевори сифатида. —Илмий-педагогик ва ўқув-методик нашрлар орқали информациявий таҳдидларга қарши курашиш: профилактика, технология, механизм республика илмий-амалий конференция тўплами. — Т.: 2017. 223 б.
5. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). Modernization of education-the future innovative competence of teachers as a main factor of formation. In Конференции.